

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni 1-ilovasining tegishli bandlariga asosan 2026-yilga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar ijrosi yuzasidan “O‘zbektelekom” AK tomonidan bajarilgan ishlar to‘g‘risida ma’lumot

2026-yil 30-iyun holatiga ko‘ra

Maqsadlar	Maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari	2026-yil reja	Ijro holati (“O‘zbektelekom” AKga tegishliligi bo‘yicha)
57-maqsad: Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy “IT-HUB”ga aylantirish	262. Xalqaro Internetga ulanish tezligini 5000 Gbit/s ga yetkazish.	4 500 Gbit/s	“O‘zbektelekom” AKning mobil va simli ma’lumotlarni uzatish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyiha doirasida keltirilgan qurilmalar xalqaro paketli kommutatsiya markaziga o‘rnatilib, xalqaro internetga ulanish tezligi 5 000 Gbit/s gacha oshirildi.
	263. Optik tolali aloqa liniyalari va keng polosali ma’lumot uzatish tarmoqlarining qamrovini 99 foiz gacha yetkazish.	98,2 foiz	“O‘zbektelekom” AK tomonidan joriy yilning 30-iyun holatiga ko‘ra respublika bo‘ylab optik tolali aloqa liniyalari va keng polosali ma’lumot uzatish tarmoqlarining qamrovi 98,2 % ga yetkazildi.
	273. Xalqaro ahamiyatga ega avtomagistrallarni 100 foiz mobil Internet bilan ta’minlash.	96 foiz	“O‘zbektelekom” AK tomonidan joriy yilning 30-iyun holatiga ko‘ra xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llarida LTE texnologiyasi bo‘yicha mobil Internet qamrovi 90,5 % ga yetkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “‘‘Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish’’ yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va ‘‘O‘zbekiston-2030’’ strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida’’gi PF-22-son Farmoni 6-ilovasining tegishli bandlari asosan 2026-yilga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar ijrosi yuzasidan ‘‘O‘zbektelekom’’ AK tomonidan bajarilgan ishlar to‘g‘risida ma‘lumot

2026-yil 30-iyun holatiga ko‘ra

T/r	Vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Ijro holati (‘‘O‘zbektelekom’’ AKga tegishliligi bo‘yicha)
57-maqsad: Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy ‘‘IT-HUB’’ga aylantirish				
191	Respublikada keng polosali ma‘lumotlar uzatish tarmoqlarining qamrovini oshirish hamda mobil aloqa sifatini yanada yaxshilash maqsadida optik tolali aloqa liniyalarining umumiy uzunligini 370 ming kmga , tayanch stansiya qurilmalarining umumiy sonini 99 851 taga yetkazish.	1. Respublikada keng polosali ma‘lumotlar uzatish tarmoqlarining qamrovini oshirish uchun 30 ming km optik tolali aloqa liniyalarini qurish. 2. Yuqori tezlikdagi internet xizmatini rivojlantirish va bunda ADSL texnologiyasini bosqichma-bosqich ekspluatatsiyadan chiqarish. 3. Aholi punktlari, shu jumladan, xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llardagi mobil aloqa qamrovini kengaytirish va mobil aloqa sifatini yanada yaxshilash maqsadida 1 114 ta tayanch stansiya qurilmalarini o‘rnatish va modernizatsiya qilish.	2026-yil davomida	1. ‘‘O‘zbektelekom’’ AK tomonidan 2026-yil boshidan shu kunga qadar 26 652 km (shundan, magistral kabel 10 633 km, drop kabel 16 019 km) uzunlikdagi optik tolali aloqa liniyalarini qurish ishlari amalga oshirildi. 2. Yuqori tezlikdagi internet xizmatini rivojlantirish va bunda ADSL texnologiyasini bosqichma-bosqich ekspluatatsiyadan chiqarish maqsadida, Kompaniyaning telekommunikatsiya tarmog‘ida 126084 dona ADSL portlari bo‘shatildi va ularni yangi texnologiyalarga almashtirish ishlari bajarildi. 3. Respublika hududi bo‘ylab aholi yashash maskanlarini, shu jumladan, xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llarini sifatli mobil aloqa va yuqori tezlikdagi mobil Internet xizmatlari bilan ta‘minlash maqsadida, Kompaniya tomonidan 2026-yilning I yarim yilligida jami 2333 ta yangi tayanch stansiyalar ishga tushirildi va modernizatsiya qilindi, shuningdek, hozirda aholi yashash maskanlarida LTE tarmog‘i bo‘yicha mobil aloqa qamrovi 95,1 % ga yetkazildi.
193	Xalqaro internetga ulanish tezligini oshirish.	Xalqaro internetga ulanish tezligini 4 500 Gbit/s ga yetkazish.	2026-yil dekabr	‘‘O‘zbektelekom’’ AK tomonidan hozirgi kunda xalqaro internetga ulanish tezligi 5 000 Gbit/s gacha oshirildi.

T/r	Vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Ijro holati (“O‘zbektelekom” AKga tegishliligi bo‘yicha)
194	Xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llarda mobil internet qamrovini kengaytirish.	Xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llarda mobil internet bilan qamrov darajasini 96 foiz gacha yetkazish.	2026-yil dekabr	“O‘zbektelekom” AKning mobil va simli ma’lumotlarni uzatish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyiha doirasida xalqaro ahamiyatga ega avtomagistral yo‘llarida LTE texnologiyasi bo‘yicha mobil Internet qamrovi 90,5 % ga yetkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 9 sentyabrdagi “Notariat institutini yanada rivojlantirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-280-son Qarori 4-ilovasi “2025 — 2027 yillarda notariat institutini yanada rivojlantirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha” «YO‘L XARITASI»

2026-yil 30-iyun holatiga ko‘ra

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochi	Bajarilish holati
13.	Barcha notarial idoralarga optik tolali aloqa tarmog‘ini o‘rnatish choralari ko‘rish.	2026 yil yanvar	Adliya vazirligi (Tashkulov), Raqamli texnologiyalar vazirligi (Shermatov)	Bajarilgan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2025-yil 22-oktabrdagi 20/25-16073/8-son murojaati hamda O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 23-oktabrdagi 3/01-20819-son topshirig‘i binoan Respublika bo‘ylab optik tolali aloqa liniyalari ta’minlanmagan 7 ta notarial idoralar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqal’a tumani Al-Beruniy ko‘chasi, 5-uy, Xorazm viloyati Urganch tumani Mustaqillik ko‘chasi 27-uy, Samarqand viloyati Narpay tumani Al-Buxoriy ko‘chasidagi notarial idoraga hamda Qashqadaryo viloyatining Mirishkor tumani Amir Temur ko‘chasi, raqamsiz uy, Kasbi tumani “Oqqamish” MFY, Mustaqillik ko‘chasi, 9-uy, Koson tumani “Mug‘jagul” MFY, Nasaf ko‘chasi, Shahrisabz shahri, “Barhayot” MFY, Ipak yo‘li ko‘chasi, 66-uy)ni optika tolali aloqa liniyasi ta’minlash bo‘yicha o‘rganish ishlari amalga

				oshirildi. O‘rganish natijasiga ko‘ra, amalga oshirilgan dastlabki hisob-kitoblarga binoan 1,1 km uzunlikdagi optik tolali aloqa liniyalari tashkil etilib, yuqori tezlikdagi Internet xizmatlari bilan ta‘minlab berildi.
--	--	--	--	--

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Telekommunikatsiya sohasida tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
2025-yil 21-avgustdagi PF-142-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli topshirig‘i**

2026-yil 30-iyun holatiga ko‘ra

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas‘ul ijrochi	Bajarilish holati
1	Telekommunikatsiyalarni tartibga solish agentligi ish faoliyatini tashkil etishda uning raqamli infratuzilmasi, moddiy texnika bazasi, zarur axborot tizim va aloqa vositalari bilan ta‘minlash	2026 yil	Raqamli texnologiyalar vazirligi (Shermatov)	Bajarilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi “Telekommunikatsiyalar sohasida tartibga solish tizimini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida” gi PF-142-son Farmoni Vazirlar Mahkamasining tegishli topshirig‘i, hamda O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2026-yil 16-apreldagi 28-8/3399-son topshirig‘iga muvofiq Telekommunikatsiyalarni tartibga solish agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik)ni raqamli infratuzilmasi, moddiy texnika bazasi, zarur axborot tizim va aloqa vositalari bilan ta‘minlash yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirib berildi. Agentlikning binosiga (Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko‘chasi 114A-uy) qadar Kompaniya tomonidan optik tolali aloqa liniyasi tashkil etilib oxirlovchi Switch qurilmasi o‘rnatildi. Kompaniyaning telekommunikatsiya xizmatlardan yuqori tezlikdagi Internet xizmati, 22 ta telefon aloqasi xizmati, 10 kanalli SIP Trunk xizmati, hukumat telefon aloqasi uchun zarur bo‘lgan VPN aloqa kanali, talabga binoan VDS xizmatlari bilan ta‘minlab berilgan